

*B. X. Abdullayev. Andijon davlat chet tillari institute o'qituvchisi,  
“University of economics and pedagogy” NOTM v.b. dotsenti  
PhD, Andijon davlat universiteti doktoranti  
S.SH.Abdullayev. Andijon davlat chet tillari instituti  
Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada reklama diskursining bozor munosabatlarda shakllanishi va reklama matnlaridagi pragmatik hodisalarning kuzatilishi, sotuvchi va haridor o'rtasidagi nutqiy munosabatda murojaat, taklif va ko'ndirish jarayonida qo'llaniladigan leksemalar haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование рекламного дискурса в рыночных отношениях и наблюдение за прагматическими явлениями в рекламных текстах, лексемами, используемыми в процессе обращения, предложения и убеждения в речевых отношениях продавца и покупателя.

**Annotation.** This article discusses the formation of advertising discourse in market relations and the observation of pragmatic phenomena in advertising texts, lexemes used in the process of appeal, offer and persuasion in the speech relationship between the seller and the buyer.

**Kalit so'zlar:** diskurs, reklama, kommunikativ muloqot, pragmatika, reklama matni

**Ключевые слова:** дискурс, реклама, коммуникативный диалог, прагматика, рекламный текст.

**Key words:** discourse, advertising, communicative dialogue, pragmatics, advertising text

Nutqiy muloqotning yozma va og'zaki shakllari mavjudligi hisobga olinsa, nutqiy muloqotda adresatga ta'sir o'tkazish, reklama misolida olsak, uni maxsulotni sotib olishga qiziqtirish, undash uchun harakat qilinadi.

Bozor munosabatlarida sotuvchi-iste'molchi nutqiy muloqot sotuvchining hatti-harakati, niyyatiga ko'ra yuzaga chiqadi va bu jarayon maqsadiga ko'ra ikki sathli bo'ladi: axborot uzatish (og'zaki reklama) va kommunikativ pragmatik maqsad (maxsulotni sotish). Axborot uzatishda sotuvchining maqsadi iste'molchining talab-ehtiyojini bilish va monopulyatsiya qilish orqali uning ehtiyojini, qiziqishini ta'minlash maqsadi ham bo'ladi. O'zaro nutqiy jarayon natijasida sotuvchi maxoratiga ko'ra, pragmatik maqsad amalga oshadi. Bundan xulosalanadi-ki, bozor munosabatlarida sotuvchi va iste'molchi o'rtasidagi nutqiy jarayonda pragmatik vazifalar kommunikativ maqsad doirasida voqelanadi. Mana shuning uchun savdo maydonida nutqiy harakat natijasi sifatida qaralgan perlokutiv aktning pragmatik tahlil doirasida o'rganamiz.

Savdo jarayonida ba'zan illokutiv fe'llarning ochiq semalari ochiq tarzda bayon qilinadi. Misol uchun: Savdoda halollik – yolg'on ishlatmaslikdir. Men aytgan narxda olsangiz, shu kuylakdan 10 ming foydalanaman, bo'lmasa harajatlarim chiqmaydi. Hoxlasangiz, rozi bo'lib shu narxda sotib oling! (Jizzax viloyati, Zarbdor kiyim bozori. 03.05.2023).

Bu muloqotda “10 ming foydalanaman” va “sotib oling” fe'llari “ozroq qoladi”, “ustiga qo'yaman”, “oling”, “olib keting” kabi illokutiv fe'llarning ochiq semalari hisoblanadi. Bu jarayon pragmatik tahlil doirasida performativ formula (qolip) atamasi bilan nomlanadi.

J.Ostinning qaydicha, har bir nutqiy tuzilma illokutiv harakatni bajarish uchun xizmat qiladi va modal ko'rsatkichlar (mayl shakli, so'z tartibi, ohang va boshqalar) so'zlovchiga u qandaydir illokutiv maqsadni ifodalash niyatida bo'lganligini bildirish imkonini beradi. Nutqiy akt nazariyasida bunday tuzilmalar «aniq performativ»lar deb ataladi.[1.36]

Bundan tashqari, O'zbekistonda bozor munosabatlarida shunday sintaktik-tuzilmalar mavjud-ki, ular anglatayotgan pragmatik mazmun doimo, barcha savdo munosabatlari jarayonida bir xil illokutiv kuchga ega bo'ladi va albatta, bunday jumlar tarkibida illokutiv fe'llar qo'llaniladi: «Arzonlatib beraman»; «Yo'lida qilib beraman»; «Kelishtirib beramiz» va hokazo.

O‘zbekiston bozorlarida savdo munosabatlari – og‘zaki reklamalarda hududga qarab illokutiv fe‘llar turlicha bayon qilinadi. Ko‘p savdo joylarida bir xil illokutiv fe‘llardan (“Optomiga sotamiz!”, “Arzon qilamiz!” kabi) foydalanar ekan. Izlanishlar davomida alohida jihatlari bilan ajralib turgan ba’zi sintaktik tuzilmalar o‘rganildi. Bularni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

<b>Hududiy bo‘linma</b>	<b>Illokutsiya jarayonida ishlatilgan so‘zlar va fe‘llar</b>
Andijon	<i>“Arzonlatib beraman, agar “Jahon”da mendan arzon bersa, pulizi qaytarib, shu tuflini ham olmiman!”, “Yo ‘lida bo‘ladi”, “Kelishamiz, aka. So‘rangchi, axir”, “Ko‘ring-chi?”, “Uka so‘rorasiz, bozor-ku!”</i>
Toshkent	<i><b>Olor, o‘zi arzon-ku uka!</b>, Menga qara uka, bitta non topaman deb o‘tirippan! Sen bergan pulingdan shu qolsa, jiyanlaring yediraman. Xalol savdo deding, aytdim”</i>
Farg‘ona	<i>“Bu narxni ko‘tarmaydi, bizda”, Axir, bir narsa deng siz ham”, Behijolat, akajon, izlab kelasiz!”, Pulizi olib, aldasam, otam haydavoradi!”.</i>
Surxondaryo	<i>Yaxshi yetib keldizmi?”, 2 ta patir ottiz sotaman, bo‘ladimi. Bir joyga oborsangiz uyalmaysiz, otvechat qilaman! Boladimi? Yana oling!”</i>
Navoiy	<i>“Olaberling, kelasiz yana!”, Bachalarizga olasizda, kelishamiz!”</i> , Bu suvni gazi oshqozonni davolamasa, meni deysiz! Yaxtakkina ichasiz, 1 kun suv demaysiz!”
Sirdaryo	<i>Hali zamon kelasiz, qaytib”</i> , Bu bomaydimi? Qarang aka, Optim 5000, men 1000 som, suvni pulini soradim. Oqmoyni dog‘lanmaganini aldab, 5000 desa arzon desangiz, olaberling!”
Qashqadaryo	<i>Do‘konimiz tepadaligiga arzon, tekindek oling!”</i> , Ishlab chiqorgan firmaga qarang, narxiga ham qarang, bilasiz!”
Buxoro	<i>“Ko‘ring qani, kiyib ko‘rsayiz, olorasiz. Yoqib qoladi”, “Yolg‘on bo‘maydi, bugun juma! Allohdan suradim, beradi, sizni aldab nima olaman!”</i> ,
Namangan	<i>Narsa qilib olsangiz, arzonlatib beraman”</i> , Ako, buni materialini ko‘ring, pul so‘ramayman! Agar boshqa do‘konda bersa, pulizi qaytarmagan nomard!”
Jizzax	<i>Yaxshi keldizmi, Mana ko‘ringchi”</i> , Ishga bo‘lsa bos! Rezinkamas padoji. O‘zi yoqib, puli yoqmasa 65 ga ol!”, olsang, raxmat deysan!”, Bu Turkiya, uka. Siz O‘zbekistonnikini ko‘rgansiz! Men ham beroraman, arzon qilib. Ano dedim, boya kelgan, jiyanimga! Shu qizchaga olasizmi?”
Sirdaryo	<i>Yanagi kelganda qo‘shib berasiz, oloring”</i> , Aytaymi, aldamasangiz, halol bo‘ladi! O‘sha narsani olib, bolamga yediraman-ku!”, Kiyib ko‘ringlar, yoqsa, olasiz! Sifati pulizga arziydi!”

N. D. Arutyunova nutq aktidagi adresatning omili muammosi haqida gapirganda, nutq aktining pragmatik ahamiyatini nafaqat gapiruvchi sub’ektga, balki nutq holatiga, shuningdek qabul qiluvchidan sezilarli darajada bog‘liq qiladi.[2.14]

Bunday jarayon haridor bilan sotuvchi kommunikativ munosabatning izchilligi va aloqani to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq olib borishni ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Austin, John. Philosophical Papers. Oxford: Oxford University Press, 1960. —. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962/1975. 2nd ed.
2. Арутюнова, Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике [Текст] / Н.Д. Арутюнова - М.: Изд-во АН СССР, 1973. – С. 84-92.
3. KH, Abdullaev B. "A LOOK AT ADVERTISING AND THE HISTORICAL FORMATION OF ADVERTISING IN UZBEKISTAN." Open Access Repository 8.12 (2022): 684-686.
4. Ф.К.Хабибуллаева. К проблеме воссоздания национальной самобытности в художественном переводе. «Содружество культур» (материалы республиканской научно-практической конференции), Наманганский государственный университет, 20-21 май.2026 – С. 84-92.